

SOMATIZMLAR VA PARALINGVISTIK VOSITALARNING MADANIYATLARARO MULOQOTDAGI ROLI: INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA

V. Tangriyev¹

Annotatsiya:

Ushbu tezis ingliz va o‘zbek tillaridagi somatizmlar va paralingvistik vositalarning madaniyatlararo muloqotdagi o‘rni, hissiy ifodalashdagi farqlarini tahlil qiladi hamda tarjima jarayonidagi qiyinchiliklarni yoritadi.

Kalit so‘zlar: somatizmlar, paralingvistik vositalar, madaniyatlararo muloqot, hissiy ifoda, tarjima

doi: <https://doi.org/10.2024/tvc5tt39>

Kirish

Paralingvistik vositalar, xususan, somatizmlar, madaniyatlararo muloqotda muhim rol o‘ynaydi. Har bir madaniyat o‘ziga xos muloqot usullariga ega bo‘lib, somatizmlar — ya’ni tana qismlariga asoslangan so‘zlar va iboralar — muloqot jarayonida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ingliz va o‘zbek tillarida somatizmlar lingvistik, madaniy va hissiy jihatlar bilan bog‘liq bo‘lib, har ikki tilda o‘ziga xos semantik farqlar mavjud.

Anna Vierzbicka o‘z tadqiqotlarida madaniyatlararo muloqotda tana tili, imo-ishoralar va somatizmlarning kommunikativ uslubning ajralmas qismi ekanligini ta’kidlaydi [1]. Har bir madaniyat somatizmlar orqali hissiy va ijtimoiy jihatlarni o‘ziga xos tarzda ifodalaydi. O‘zbek madaniyatida somatizmlar ko‘pincha jamoaviylik va jamiyatga hurmatni ifodalasa, ingliz madaniyatida individualistik yondashuv va shaxsiy tajriba asosiy o‘rinni egallaydi. Shu sababli, ushbu tezis ingliz va o‘zbek tillaridagi somatizmlar asosida shakllangan paralingvistik vositalarning madaniyatlararo muloqotdagi o‘rni va ahamiyatini tahlil qiladi.

Asosiy qism

Somatizmlar — bu inson tana a’zolariga asoslangan so‘zlar va iboralar bo‘lib, ular madaniy, lingvistik va paralingvistik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir madaniyatda somatizmlar turlicha qo‘llaniladi va bu vositalar muloqot jarayonida chuqur ma’no yetkazishga yordam beradi. Somatizmlar orqali hissiyotlarni ifodalash turli madaniyatlarda keng qo‘llaniladi.

Misol uchun, “Anger is in the heart” metaforasi Zulu madaniyatida g‘azabning yurakda joylashganini tasvirlaydi. Bu somatik ibora bo‘lib, g‘azabni ifodalash yurak orqali amalga oshiriladi va bu fiziologik jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir [2]. Shuningdek, “The angry person is a pressurized container” metaforasi ham somatik

¹ Tangriyev Valisher Azamovich, Denov tadbikorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

hisoblanadi, chunki bu metaforada tana g'azabni yig'ib turgan idishga o'xshatilib, ichki bosim orqali ifodalanadi [2].

Sevgi bilan bog'liq somatik iboralar ham keng tarqalgan. Masalan, "Increase in heart rate stands for love", "He's a heart-throb", yurakning tez urishi sevgi va romantik his-tuyg'ular bilan bog'liq holda tasvirlanadi [2]. Shuningdek, "Inability to breathe stands for love" metaforasi — "You take my breath away" — nafas olishning qiyinlashishini sevgi bilan bog'laydi va bu ham somatik metaforadir [2].

Bu misollar somatizmlarning turli madaniyatlarda qanday ifodalanaganini ko'rsatadi. Ushbu iboralar tananing turli qismlariga asoslangan bo'lib, ular orqali hissiy va fiziologik jarayonlar ifodalanadi.

Bosh ishtirokidagi paralingvistik vositalar ham madaniyatlararo muloqotda muhim rol o'ynaydi. M.Barotovanning tadqiqotiga ko'ra, o'zbek madaniyatida boshning turli holatlari orqali ma'lumot yetkazish muloqotning noverbal jihatini ta'minlaydi [5]. Masalan, boshni egish odatda itoat va hurmatni bildirsa, boshni ko'tarish asabiylashish yoki o'zini himoya qilish bilan bog'lanadi. Boshning turli harakatlari madaniy kontekstga qarab turlicha talqin qilinishi mumkin.

Madaniyatlararo muloqotda paralingvistik vositalar va somatizmlarning qabul qilinishidagi farqlar har doim ham tushunilishi oson emas. "Boshini silash" kabi iboralar o'zbek madaniyatida mehribonlik va g'amxo'rlikni ifodalasa-da, boshqa madaniyatlarda bunday harakatlar befarqlik yoki xafagarchilik sifatida tushunilishi mumkin [5]. Shuningdek, ingliz tilida "nod your head" (boshni qimirlatish) degan ibora tasdiqni bildiradi, lekin boshqa madaniyatlarda bu harakat shubhani ifodalashi mumkin [6].

Paralingvistik vositalarning madaniyatlararo farqlariga yana bir misol Yapon va Amerika madaniyatidagi masofa saqlash odatlaridir. Yaponlar uchun yaqin masofada turib gaplashish hurmat belgisi bo'lsa, amerikaliklar uzoqroq turib suhbatlashishni afzal ko'radilar [6]. Bu farqlar muloqot davomida tushunmovchilikka olib kelishi mumkin.

Paralingvistik vositalarning madaniy jihatlari Deborah Tannenning ishlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. U o'z tadqiqotlarida somatizmlarning muloqot jarayonida chuqurroq hissiy va ijtimoiy ma'nolarni qanday yetkazishini tahlil qilgan [3].

Somatizmlar tarjima jarayonida ko'pincha qiyinliklarga olib keladi, chunki har bir madaniyatda somatizmlar o'ziga xos hissiy ma'nolarga ega. Masalan, o'zbek tilidagi "Turobjon qizardi" iborasi ingliz tilida "Turobjon got red in the face" tarzida tarjima qilinadi, lekin o'zbek madaniyatida qizargan yuz kuchliroq hissiy iztirobni ifodalaydi [7]. Xuddi shunday, "Boshi aylanib, ko'zi tindi" iborasi ingliz tiliga yumshatilgan holda tarjima qilingan, bu esa hissiy iztirobning kuchini kamaytirishi mumkin.

Madaniyatlararo muloqotda paralingvistik vositalar va somatizmlar nozik farqlarga ega. Masalan, ko'z bilan aloqa qilish yevropaliklar orasida ijtimoiy normal hisoblanadi, lekin o'zbek va yapon madaniyatlarida bu hurmatsizlik deb talqin qilinadi [5]. Xaitovning tadqiqotiga ko'ra, somatizmlar va paralingvistik vositalar yordamida hissiy holatlar, ayniqsa, madaniyatga mos ravishda ifodalanadi. Misol uchun, o'zbek adabiyotida kulgi va masxaralash voqealarini paralingvistik vositalar yordamida ifodalashda fonatsiya va intonatsiyaning ahamiyati katta [4].

Xulosa

Somatizmlar va paralingvistik vositalar madaniyatlararo muloqotda muhim rol o'ynaydi. Ingliz va o'zbek madaniyatlari o'rtasidagi lingvistik va madaniy farqlar somatizmlar orqali aniq namoyon bo'ladi. Ushbu tezisda somatizmlarning tarjimada qanday qiyinchiliklar tug'dirishi, paralingvistik vositalarning esa turli madaniy kontekstlarda turlicha qabul qilinishi o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo tarjimada hissiy iztirob va ichki holatlarni to'g'ri ifodalash uchun somatizmlar va paralingvistik vositalarning madaniy kontekstdagi roli katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Wierzbicka, A. (2003). *Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction* (2nd ed.). Mouton de Gruyter.
- [2]. Kövecses, Z. (2000). *Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling*. Cambridge University Press.
- [3]. Tannen, D. (2007). *Talking Voices: Repetition, Dialogue, and Imagery in Conversational Discourse* (2nd ed.). Cambridge University Press.
- [4]. Xaitov, X. A. (2023). O'zbek nasrida paralingvistika orqali kulgi uyg'otish estetikasi. *International Conference on Advanced Research in Humanities, Applied Sciences and Education*, 75-78.
- [5]. Barotova, M. O. (2022). Bosh ishtirokidagi paralingvistik vositalar xususida. *Scientific Reports of Bukhara State University*, 128-134.
- [6]. Tursunova, O., & Rahimova, M. (2023). Paralingvistik vositalarni o'rganishning ahamiyati. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*, Paris, France, 53-55.
- [7]. Tangriyev, V. (2024). Comparative study of paralinguistic devices conveyed through somatic expressions: A case study of the story "Pomegranate". *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari*, 4(9), 202-205.